

QO'QON XONLIGINING ME'MORIY YODGORLIKLARI

Abduhamidov Doniyorbek,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi, 2-kurs talabasi.

doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada, XVIII -XIX asr 70-yillarida O'rta Osiyoning yirik xonliklaridan biri bo'lgan Qo'qon xonligining qadimiy me'moriy yodgorliklari, madrasalari va o'ziga xos me'moriy uslublari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, madaniyat, me'morchilik, Qo'qon, Toshkent, madrasa, Norbo'tabiy madrasasi, Madrasai Kamol qozi, "Madrasai Oliy", Xudoyorxon o'rdasi.

XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylar davlati inqirozga yuz tutgan va mamlakat parchalana boshlagan. Natijada, Buxoro xonligidan Farg'ona vodiysidan iborat Qo'qon xonligi ajralib chiqqan. Vodiya katta obro'-e'tiborga ega xo'jalar jamoasi hokimiyat uchun harakat qilayotgan bir vaqtda, o'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shoxruxbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721) chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709-1710-yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos solgan. Ammo uning hokimiyati hali Ashtarxoniylardan batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shoxruxbiyning nomi Abulfayzxondan so'ng tilga olingan. Biroq, Qo'qon xonligi asta-sekinlik bilan qudratli davlatga aylana borgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi natijasida iqtisodiyotning birmuncha jonlanishi madaniy hayotga ta'sir etmay qolmagan. Mamlakat poytaxti Qo'qon va boshqa shaharlarda bir qator me'morchilik obidalari, yo'llar, ko'priklar, hammomlar qurilgan, amaliy va xattotlik san'ati rivoj topgan. XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon (1810-1822), Muhammadalixon (1822-1842) kabi hukmdorlar, Nodirabegim kabi madaniyat homiylari davrida ko'plab me'moriy obidalar qurdirilgan, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlangan.

Memorchilikda asosiy e'tibor madrasalar, masjidlar, xonaqolar, darvesh va qalandarlar uchun takiyaxonalar, qorixonalar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, bozor rastalari barpo etishga qaratilgan [1. - B.444 – 445.].

Qo'qon xonligi hukmronligi yillarida mamlakat shahar va qishloqlarida 400 ga yaqin katta kichik madrasalar bo'lgan. Ulardan Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon,

Xo'jand, O'ratepa kabi shaharlarda 20 tadan 50 tagacha, Namangan, O'sh, Chust, To'raqo'rg'on kabi kichik shaharlarda 3 - 10 atrofida madrasalar mavjud bo'lgan.

XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishida va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning roli katta bo'lgan. Madrasalarda talabalarni o'qitish xarajatlari otionalar zimmasiga tushgan. Maktablarda bolalar bo'yra yoki shalcha ustida o'tirib o'qishgan. 1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasada 1000 ta mulla o'qigan. Bu madrasani 2 ta muddaris boshqargan [2. - B. 54-55.].

Qo'qon xonligidagi madrasalar asosan uch turga bo'lingan. Madrasalar Qo'qon xonligining boshqa shaharlarida ham bor edi, ammo ular Qo'qondagidek ulkan va salobatli emas edi. XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida xalq me'morchiligi rivojlangan. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanilib, shriftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish odat bo'ladi.

Qo'qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me'morchilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva, Buxorodan keyin to'rtinchi o'rinda turgan.

Farg'ona vodiysida 1740-yil Eski O'rda o'rnida hozirgi Qo'qon shahriga asos solinishi xonlikning turli shaharlarida bunyod etilgan ko'plab o'rdalar, bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar, xonaqolar, qorixonalar madrasalar, chunonchi Mir (1798), Norbo'ta, Xonmirza Yodgor (1830), Xazrati Sohib (1861), Xudoyorxon (1850, 1870-yillari Qo'qonda, 1873-yil Namanganda, 1874-1875-yili Shohobodda, Chustda), Hokimoyim (1869), Sulton Murodxon (1871), Ma'rufxonto'ra (Namangan va Asakada), Olimbek (O'shda), Nasriddinbek (Andijonda), Toshkentda XIX asrda qurilgan Beklar begi, Mo'yi Muborak, Eshonqul dodxoh, Yunusxon, Abulqosim madrasalarini dalil sifatida ko'rsatish mumkin [4. - B. 301-302.].

Bu borada xususan Xudoyorxon o'rdasi, Norbo'tabiy madrasasi, Madrasai Kamol qozi kabi va boshqa o'nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir. 1815-yilda Qo'qon shahrida yuz bergan zilzila oqibatida binolarning ko'piga zarar yetadi, juda ko'plab odamlar uylar tagida qolib halok bo'ladilar. Ayrim joylarda yerlar yorilib ketadi. Bir necha kishilar unga tushib halok bo'ladi. Yerdan tutun chiqib suv favvora kabi otilgan. Yer olti oy davomida tinmay silkinib turganligi aytilgan edi [3. - B.143-144.].

So'nggi Qo'qon xonlaridan bo'lgan Xudoyorxon davrida ham bir qator me'moriy yodgorliklar barpo etilgan. Ulardan biri Xudoyorxon o'rdasi edi. Xudoyorxon o'rdasi 1863-1873-yillarda barpo etilgan bo'lib, Xudoyorxon o'ziga saroy qo'rg'on qurdiradi, u o'rda deb atalib Buxoro ravog'iga qarama-qarshi qilib qurilgan. Saroy me'mor Usta mir Ubaydullo rahbarligida mahalliy hunarmandlar mulla Suyorqul ,

Usto Solixoja tomonidan barpo etilgan. Shuningdek, Xudoyorxon davrida “Madrasai Oliy”, “Madrasai Sulton Murodbek”, “Madrasai Hokim Oyim”lar ham barpo etilgan. Yuzdan ortiq xonalarni o‘z ichiga olgan saroyning rejasi to‘rtburchakka mos keladi.

Umuman olganda, Qo‘qon xonligida barpo etilgan ko‘plab me‘moriy yodgorliklar bizning davrimizgacha, o‘zining ulug‘vorligini yo‘qotmay yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшов Б. Ш., Одилов А. А. Ўзбекистон тарихи. - Тошкент, 2014.
2. Alixo‘jayev M. Qo‘qon xonligining madaniy hayotida maktab-madrasalarning tutgan o‘rni (1800-1876). - T., 2012.
3. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
4. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. - Т.: Шарқ, 2001.